



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH  
VAZIRLIGI TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI  
REKTORINING  
BUYRUG‘I**

2023 yil “13” iyun 01098 - son

**“Ginekologiya va reproduktologiyaning dolzarb muammolari”  
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasini o‘tkazish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-maydagi “Tibbiyot va farmatsevtika ta’limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4310-sonli qarori hamda Toshkent tibbiyot akademiyasi (keyingi o‘rinlarda – TTA) rektorining 2023-yil 15-fevraldagi 48-sonli buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida

**BUYURAMAN:**

1. 2023 yil 17-iyun kuni Toshkent tibbiyot akademiyasida (keyingi o‘rinlarda – TTA) “Ginekologiya va reproduktologiyaning dolzarb muammolari” xalqaro ilmiy-amaliy anjumanini (keyingi o‘rinlarda – Anjuman) o‘tkazilsin.

2. Quyidagilar:

anjumanning dasturi 1-ilovaga;

anjuman tashkiliy qo‘mitasi tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Anjumanga tayyorgarlik ko‘rish, tashkillashtirish va uni o‘tkazish uchun TTA akusherlik va ginekologiya kafedrasini mudiri t.f.d. prof. F.I.Shukurov, t.f.d. prof. G.S. Babadjanova, t.f.d. dotsent G.N. Bekbauliyeva, t.f.d. dotsent L.M.Abdullayeva, t.f.d. dotsent Muminova Z.A., t.f.d. An A.V., t.f.n. dotsent G.M.Nigmatova, t.f.n. Abdieva M.O. va t.f.n. Muftaydinova Sh.K.lar mas’ul etib belgilansin.

4. Akusherlik va ginekologiya kafedrasini mudiri t.f.d. prof. F.I.Shukurov, t.f.d, prof. G.S. Babadjanova, t.f.d. dotsent G.N. Bekbauliyeva, t.f.d. dotsent L.M.Abdullayeva, t.f.d. dotsent Muminova Z.A., t.f.d. An A.V., t.f.n. dotsent G.M.Nigmatova, t.f.n. Abdieva M.O. va t.f.n. Muftaydinova Sh.K.larga:

2023 yil 17-iyun kuni “Ginekologiya va reproduktologiyani dolzarb muammolari” Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman yakuniga ko‘ra anjuman materiallari onlayn chop etilsin;

anjumanni yuqori saviyada va keng qamrovda tashkillashtirish maqsadida ijtimoiy tarmoqlar hamda TTA veb-saytida keng targ‘ib qilinsin;

xalqaro mutaxassislar ishtiroki bilan xalqaro ilmiy-amaliy anjuman ishi yakunlangach 5 kun muddat ichida Sog‘liqni saqlash vazirligining Ilm-fan va ta‘lim boshqarmasiga hisobot topshirilsin.

5. Mazkur buyruqning ijrosini Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova zimmasiga yuklatilsin.

**Rektor**



**A.Shadmanov**

**Buyruq kelishuvi**

**Tayyorladi:**

**F.Shukurov**

**Kafedra mudiri**

**Kelishildi:**

**S.Yusupova**

**Bo'lim boshlig'i**

**Sh.Boymuradov**

**O'quv ishlari bo'yicha prorektor**

**F.Azizova**

**Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha  
prorektor**

**F.Azizova**

**Boshqarma boshlig'i**

**M.Jafarov**

**Bo'lim boshlig'i**

**J.Israilov**

**Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor**